KORXONALARDA MOLIYAVIY VA BOSHQARUV HISOBI INTEGRATSIYASI ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN MODELI

Rahmonova Yulduz Sharafitdinovna
SamISI PhD, v.b.dotsent
Tel.: (97) 446-03-60
Elektron pochta: raxmanova_yulduz@mail.ru
UDK: 657.1:332.7-047:32(575.1)
ORCID: 0009-0008-9676-2216
Abdusalomov Ahliddin Shamsiddin og'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti talabasi
E-mail: aabdusalomov047@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasining iqtisodiy samaradorlikni baholashdagi ahamiyati, mavjud hisob tizimlarining o'zaro bog'liqligi hamda ularni takomillashtirish mexanizmlari kompleks tarzda o'rganilgan. Tadqiqotda moliyaviy hisobot ma'lumotlari va ichki boshqaruv axborotlaridan birgalikda foydalanish, daromad va xarajatlarni tahlil qilish, mahsulot tannarxini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda moliyaviy natijalarni prognozlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, korxonalarda hisob ma'lumotlarining yaxlitligini ta'minlash, axborot almashinuvini takomillashtirish va boshqaruv qarorlarining iqtisodiy asoslanganligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi asosida korxonalarning iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan takomillashtirilgan model hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, hisob tizimi integratsiyasi, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy hisobot, boshqaruv qarorlari, daromad va xarajatlar, mahsulot tannarxi, moliyaviy natijalar, ichki nazorat, resurslardan foydalanish, iqtisodiy tahlil.

Аннотация. В данной статье комплексно рассматривается значение интеграции финансового и управленческого учета в оценке экономической эффективности предприятий, взаимосвязь существующих систем учета, а также механизмы их совершенствования. В исследовании особое внимание уделяется совместному использованию данных финансовой отчетности и внутренней управленческой информации, анализу доходов и расходов, определению себестоимости продукции, оценке эффективности использования ресурсов и прогнозированию финансовых результатов. Кроме того, анализируются возможности обеспечения целостности учетной информации на предприятиях, совершенствования информационного обмена и повышения экономической обоснованности управленческих решений. По итогам исследования разработаны усовершенствованная модель и практические предложения, направленные на оценку экономической эффективности предприятий на основе интеграции финансового и управленческого учета.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ключевые слова: финансовый учет, управленческий учет, интеграция учетных систем, экономическая эффективность, финансовая отчетность, управленческие решения, доходы и расходы, себестоимость продукции, финансовые результаты, внутренний контроль, использование ресурсов, экономический анализ.

Annotation. This article provides a comprehensive examination of the importance of integrating financial and management accounting in assessing the economic efficiency of enterprises, the interrelationship between existing accounting systems, and mechanisms for their improvement. The study pays particular attention to the combined use of financial reporting data and internal management information, the analysis of revenues and expenses, the determination of production costs, the assessment of resource utilization efficiency, and the forecasting of financial results. Furthermore, the article analyzes opportunities to ensure the integrity of accounting information within enterprises, improve information exchange, and enhance the economic justification of management decisions. Based on the research findings, an improved model and practical recommendations have been developed to assess the economic efficiency of enterprises through the integration of financial and management accounting.

Keywords: financial accounting, management accounting, integration of accounting systems, economic efficiency, financial reporting, management decisions, revenues and expenses, production costs, financial results, internal control, resource utilization, economic analysis.

Kirish. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va bozor munosabatlarining jadallashuvi korxonalarda moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Ushbu jarayonlarning muhim yo‘nalishlaridan biri moliyaviy va boshqaruv hisobi ma’lumotlarini o‘zaro integratsiyalash hamda ulardan iqtisodiy samaradorlikni baholashda kompleks foydalanish hisoblanadi. Xususan, iqtisodiy raqobatning kuchayishi, ishlab chiqarish xarajatlarining o‘zgarishi, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va korxonalarning barqaror faoliyatini ta’minlash masalalari hisob tizimining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bunday sharoitda moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi korxona faoliyatini har tomonlama tahlil qilish, mavjud iqtisodiy imkoniyatlarni aniqlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligini belgilovchi asosiy omillardan biri zamonaviy korxonalarda moliyaviy axborotlar hajmining ortib borishi va ularni boshqaruv ehtiyojlariga mos ravishda qayta ishlash zaruratidir. Moliyaviy hisob korxonaning aktivlari, majburiyatlari, daromadlari, xarajatlari va moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma’lumotlarni shakllantirsa, boshqaruv hisobi ishlab chiqarish jarayonlari, xarajatlar tarkibi, mahsulot tannarxi va ichki faoliyat samaradorligi haqida batafsil axborot beradi. Ushbu ikki hisob tizimining o‘zaro muvofiqlashtirilmaganligi ayrim hollarda ma’lumotlarning takrorlanishi, tahlil jarayonining murakkablashishi, xarajatlarni baholashdagi tafovutlar va boshqaruv qarorlarining yetarlicha asoslanmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli moliyaviy va boshqaruv hisobini yagona axborot tizimi asosida integratsiyalash korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda korxonalarning iqtisodiy samaradorligi faqat ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi yoki olingan foyda miqdori bilan belgilanmaydi. Bunda aktivlardan foydalanish darajasi, mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, operatsion xarajatlar, pul oqimlari va moliyaviy resurslarning aylanish tezligi kabi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko‘rsatkichlar ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, iqtisodiy noaniqlik sharoitida ushbu ko‘rsatkichlarni muntazam kuzatib borish va ularning o‘zaro ta’sirini aniqlash korxona faoliyatini samarali boshqarishning zarur shartiga aylanmoqda. Moliyaviy va boshqaruv hisobi ma’lumotlarini birgalikda tahlil qilish esa korxonaning moliyaviy holati bilan ichki ishlab chiqarish jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusidagi natijalarni prognozlash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham korxonalar faoliyatining rivojlanishi va tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi moliyaviy hisob hamda boshqaruv axborotlarining sifatiga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda mamlakatimizda 494 068 ta faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilot qayd etilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 542 672 tani, 2023-yilda 483 554 tani, 2024-yilda 469 113 tani va 2025-yilda 442 402 tani tashkil etgan. Keltirilgan ma’lumotlar korxonalar faoliyatini hisobga olish, ularning moliyaviy holatini baholash va iqtisodiy natijalarini tahlil qilish masalalari mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari va xususiy korxonalarda moliyaviy hisobot ma’lumotlari bilan ichki boshqaruv axborotlarini o‘zaro bog‘lash, xarajatlarni nazorat qilish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish zarurati alohida ahamiyatga ega.

Statistik ma’lumotlar korxonalar faoliyatini samarali boshqarish va hisob tizimini takomillashtirish zaruratini yanada yaqqol namoyon etadi. Xususan, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 469 113 ta faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilot mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko‘rsatkich 474 899 tani tashkil etgan. 2026-yil boshida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning 403,8 mingdan ortig‘i yoki qariyb 85 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu holat kichik biznes subyektlarida ham moliyaviy hisob ma’lumotlari bilan bir qatorda xarajatlar, daromadlar, mahsulot tannarxi va resurslardan foydalanish bo‘yicha ichki boshqaruv axborotlarini shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi. Demak, korxonalarning iqtisodiy samaradorligini to‘g‘ri baholash uchun faqat umumiy moliyaviy hisobotlar bilan cheklanib qolmasdan, boshqaruv hisobi ma’lumotlaridan ham tizimli foydalanish talab etiladi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasining dolzarbligi yana bir qator muhim omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, korxonalarda hisob ma’lumotlarini yagona tizimga birlashtirish axborot almashinuvini tezlashtirish va ma’lumotlarning ishonchliligini oshirish imkonini beradi. Ikkinchidan, daromad va xarajatlarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish mahsulot tannarxini aniq belgilash hamda ortiqcha xarajatlarni aniqlashga yordam beradi. Uchinchidan, moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan ichki boshqaruv natijalarini birgalikda baholash korxonaning mavjud iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish uchun zarur axborot bazasini shakllantiradi. Shu jihatdan hisob tizimlari integratsiyasiga asoslangan takomillashtirilgan baholash modelini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi korxonalarda moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasining iqtisodiy samaradorlikni baholashdagi ahamiyatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, mavjud hisob tizimlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish hamda iqtisodiy samaradorlikni baholashning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda moliyaviy hisobot va ichki boshqaruv axborotlaridan birgalikda foydalanish, daromad va xarajatlarni tahlil qilish, mahsulot tannarxini aniqlash, aktivlardan foydalanish samaradorligini baholash hamda moliyaviy natijalarni prognozlash masalalari chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, hisob ma’lumotlarining boshqaruv qarorlariga ta’siri, axborot almashinuvini takomillashtirish va korxonalarda iqtisodiy yo‘qotishlarni kamaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot yakunida moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi asosida korxonalarning iqtisodiy

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

samaradorligini baholashga qaratilgan takomillashtirilgan model hamda amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi

Ushbu mavzuga oid bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Xususan, B.E. Weißenberger va H. Angelkort [1] o'z tadqiqotlarida moliyaviy va boshqaruv hisobi tizimlarini integratsiyalashning korxonalarda boshqaruv samaradorligiga ta'sirini tahlil qilganlar. Mualliflar Germaniyaning yirik kompaniyalari misolida olib borgan tadqiqotlarida hisob tizimlarining o'zaro muvofiqligi, yagona moliyaviy axborot tilidan foydalanish va ichki boshqaruv hisobotlarining moliyaviy hisobotlar bilan uyg'unligini muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tganlar. X. Chen [2] o'z ilmiy ishida moliyaviy va boshqaruv hisobini birlashtirishda sun'iy neyron tarmoqlaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rgangan. Tadqiqotda moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlash, korxonalarning moliyaviy holatini baholash va moliyaviy natijalarni prognozlashga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan model taklif etilgan. Le Thi Thu Hieu, Nguyen Phong Nguyen va Tu Thanh Hoai [3] o'z maqolalarida boshqaruv hisobi tizimlarining korxonalar faoliyati samaradorligiga ta'sirini o'rganganlar. Mualliflar Vetnamdagi 158 ta korxona misolida olib borgan tadqiqotlarida boshqaruv hisobi axborotlaridan foydalanish ta'minot zanjiri integratsiyasini kuchaytirishi va natijada korxonalarning umumiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishini asoslab berganlar. Mahalliy olim O.O. Sobirov [4] iqtisodiy subyektlarda boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, xarajatlarni nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish masalalarini tadqiq etgan. I.I. Meliyev [5] esa korxonalar faoliyati samaradorligini moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari asosida baholash, likvidlik, to'lov qobiliyati va rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda ularning amaliy ahamiyatini yoritib bergan. Mazkur ilmiy tadqiqotlar moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi hamda korxonalar iqtisodiy samaradorligini baholashning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu ikki hisob tizimini yagona baholash modeli asosida birlashtirish, moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda korxonalar samaradorligini kompleks baholash masalalari qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Tahlil natijalari

Bugungi kunda korxonalar faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni to'g'ri baholash moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va boshqaruv qarorlarini asoslashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bunda moliyaviy hisob korxonaning umumiy moliyaviy holati, daromadlari, xarajatlari, aktivlari va majburiyatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Boshqaruv hisobi esa ishlab chiqarish jarayonlari, mahsulot tannarxi, resurslardan foydalanish va alohida bo'limlar faoliyatini tahlil qilish imkonini yaratadi. Ushbu ikki hisob tizimining alohida yuritilishi ayrim ma'lumotlarning takrorlanishi, axborot almashinuvida uzilishlar va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda kechikishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli moliyaviy va boshqaruv hisobini o'zaro integratsiyalash korxona faoliyatini yanada samarali tashkil etishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi, avvalo, korxonada shakllanadigan ma'lumotlarning yagona axborot tizimida jamlanishini nazarda tutadi. Bunda moliyaviy hisob orqali olingan daromad va xarajatlar haqidagi ma'lumotlar boshqaruv hisobi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Natijada korxonaning umumiy moliyaviy natijasi bilan bir qatorda, mahsulot turlari, ishlab chiqarish bo'limlari va alohida faoliyat yo'nalishlarining samaradorligini ham aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Korxona iqtisodiy samaradorligini baholashda faqat foyda miqdoriga tayanish yetarli emas. Chunki yuqori daromadga ega korxonada ishlab chiqarish xarajatlari ham ortiqcha bo‘lishi yoki mavjud resurslardan to‘liq foydalanilmasligi mumkin. Shuning uchun tahlil jarayonida rentabellik, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, aktivlar qaytimi, pul oqimlari va xarajatlarning daromadlarga nisbati kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu ko‘rsatkichlarni birgalikda o‘rganish korxonaning nafaqat moliyaviy natijalarini, balki ichki boshqaruv jarayonlarining qay darajada samarali tashkil etilganini ham ko‘rsatadi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi ma’lumotlarini birlashtirishda xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash alohida ahamiyatga ega. Jumladan, doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni ajratish, mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bevosita xarajatlarni aniqlash hamda bilvosita xarajatlarni tegishli faoliyat yo‘nalishlariga taqsimlash orqali mahsulotning haqiqiy tannarxini hisoblash imkoniyati kengayadi. Bu ma’lumotlar asosida korxona qaysi mahsulot turi ko‘proq foyda keltirayotganini, qaysi yo‘nalishda ortiqcha xarajatlar mavjudligini va qaysi jarayonlarni takomillashtirish zarurligini aniqlashi mumkin.

Bizning fikrimizcha, korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni baholashning takomillashtirilgan modeli bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab olishi kerak. Xususan:

- moliyaviy va boshqaruv hisobi ma’lumotlarini yagona axborot bazasida shakllantirish;
- daromadlar va xarajatlarni faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlash;
- mahsulot va xizmatlar tannarxini aniq hisoblash;
- rentabellik va foydalilik ko‘rsatkichlarini muntazam tahlil qilish;
- mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanish darajasini baholash;
- rejalashtirilgan va haqiqiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash;
- tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish.

Mazkur yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilishi korxonada iqtisodiy jarayonlar ustidan nazoratni kuchaytiradi. Masalan, mahsulot tannarxining rejalashtirilgan ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lishi aniqlansa, boshqaruv hisobi orqali bunga sabab bo‘lgan material sarfi, ish haqi yoki boshqa ishlab chiqarish xarajatlari o‘rganiladi. Moliyaviy hisob ma’lumotlari esa ushbu o‘zgarishlarning korxonaning umumiy foydasi va moliyaviy holatiga ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Shu tariqa ikki hisob turi bir-birini to‘ldiradi va tahlilning ishonchliligini oshiradi.

Korxonalarda moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi asosida iqtisodiy samaradorlikni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

1-jadval. Moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash ko‘rsatkichlari

№	Baholash ko‘rsatkichi	Moliyaviy hisobdagi ma’lumot	Boshqaruv hisobidagi ma’lumot	Baholash maqsadi
1	Foyda miqdori	Daromad va xarajatlar	Mahsulotlar bo‘yicha foyda	Korxonaning moliyaviy natijasini aniqlash
2	Rentabellik	Sof foyda va aktivlar	Mahsulot yoki bo‘lim rentabelligi	Foydalilik darajasini baholash
3	Mahsulot tannarxi	Ishlab chiqarish xarajatlari	Bevosita va bilvosita xarajatlar	Xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini aniqlash

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

4	Mehnat unumdorligi	Mehnatga haq to‘lash xarajatlari	Ishlab chiqarish hajmi va ish vaqti	Mehnat resurslaridan foydalanishni baholash
5	Aktivlar qaytimi	Aktivlar va tushum	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish	Mavjud aktivlar samaradorligini aniqlash
6	Pul oqimlari	Pul mablag‘lari kirimi va chiqimi	Operatsion faoliyat bo‘yicha pul harakati	To‘lov qobiliyatini tahlil qilish
7	Xarajatlar og‘ishi	Haqiqiy moliyaviy xarajatlar	Reja va haqiqiy xarajatlar farqi	Ortiqcha sarflarni aniqlash

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni baholash moliyaviy va boshqaruv hisobi ma’lumotlarining o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Bunda daromad va xarajatlarni faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlash, mahsulot tannarxini aniqlash, rentabellik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish hamda mavjud resurslardan foydalanish darajasini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlar korxonaning moliyaviy natijalarini chuqur o‘rganish va iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.



1-rasm. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021–2025-yillar)

Grafikdan ko‘rinadiki, 2021–2025-yillar davomida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonida o‘zgarishlar kuzatilgan. Jumladan, 2021-yilda mamlakatimizda 494 068 ta korxona va tashkilot faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich 542 672 taga yetgan. Bu oldingi yilga nisbatan qariyb 9,8 foizga o‘sishni anglatadi. Mazkur davrda tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashkil etilishi va iqtisodiy faollikning ortishi korxonalar sonining ko‘payishiga xizmat qilgan.

2023-yilda korxona va tashkilotlar soni 483 554 tani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan sezilarli kamaygan. Ushbu pasayish korxonalar faoliyatini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish, ayrim xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tugatish yoki iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlarini o‘zgartirish kabi jarayonlar bilan

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, bu davrda korxonalar faoliyatini hisobga olish va statistik kuzatish tizimidagi o'zgarishlar ham ko'rsatkichlarga ta'sir qilishi ehtimoldan xoli emas.

2024-yilda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 469 113 tani tashkil etgan. 2023-yil bilan taqqoslaganda, bu ko'rsatkich qariyb 3 foizga kamaygan. 2025-yilda esa korxonalar soni 442 402 taga tushib, oldingi yilga nisbatan yana pasayish kuzatilgan. Umuman olganda, 2022-yildagi eng yuqori ko'rsatkichdan 2025-yilgacha korxona va tashkilotlar soni 100 270 taga kamaygan. Bu esa korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlash, ularning moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlash va mavjud resurslardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Keltirilgan statistik ma'lumotlar korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning iqtisodiy holatini muntazam baholab borish muhimligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, korxonalar sonining o'zgarishi sharoitida moliyaviy natijalarni to'g'ri hisobga olish, ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilish va ichki boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan moliyaviy va boshqaruv hisobi ma'lumotlarini integratsiyalash korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni to'g'ri baholash moliyaviy va boshqaruv hisobi ma'lumotlarining o'zaro integratsiyasiga bevosita bog'liq. Moliyaviy hisob korxonaning umumiy moliyaviy holati, daromadlari, xarajatlari, aktivlari va majburiyatlarini aks ettirsa, boshqaruv hisobi ishlab chiqarish jarayonlari, mahsulot tannarxi, resurslardan foydalanish va alohida faoliyat yo'nalishlarining natijalarini baholash imkonini beradi. Ushbu hisob tizimlarining alohida yuritilishi axborot almashinuvida uzilishlar, ma'lumotlarning takrorlanishi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun moliyaviy va boshqaruv hisobini yagona axborot tizimi asosida tashkil etish, daromad va xarajatlarni faoliyat yo'nalishlari bo'yicha guruhlash, mahsulot tannarxini aniq hisoblash hamda rentabellik ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilish zarur. Shuningdek, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash korxonaning mavjud imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hamda boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, moliyaviy va boshqaruv hisobi ma'lumotlarini yagona axborot bazasida shakllantirish va ulardan birgalikda foydalanish tizimini rivojlantirish. Bu ma'lumotlarning takrorlanishini kamaytirish, axborot almashinuvini tezlashtirish va hisob jarayonlarining aniqligini oshirish imkonini beradi;

Ikkinchidan, korxonalarda daromad va xarajatlarni mahsulot turlari, ishlab chiqarish bo'limlari hamda faoliyat yo'nalishlari bo'yicha alohida guruhlash. Natijada qaysi faoliyat turi ko'proq daromad keltirayotgani va qaysi yo'nalishda ortiqcha xarajatlar mavjudligini aniqlash mumkin bo'ladi;

Uchinchidan, mahsulot va xizmatlar tannarxini hisoblashda bevosita va bilvosita xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni alohida tahlil qilish. Bu mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

To'rtinchidan, korxonalarda rentabellik, mehnat unumdorligi, aktivlar qaytimi va pul oqimlari kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarni muntazam tahlil qilib borish. Bunday yondashuv korxonaning moliyaviy holatini chuqur baholash va mavjud iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanishga yordam beradi;

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Beshinchidan, rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farqlarni muntazam aniqlash hamda ularning yuzaga kelish sabablarini o'rganish. Bu ishlab chiqarish jarayonidagi ortiqcha sarflarni kamaytirish, ichki nazoratni kuchaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

Oltinchidan, moliyaviy va boshqaruv hisobi natijalaridan foydalanish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmini takomillashtirish. Bunda korxonaning joriy moliyaviy holatini baholash bilan birga, kelgusidagi xarajatlar, daromadlar va iqtisodiy natijalarni oldindan rejalashtirishga ham e'tibor qaratish lozim.

Umuman olganda, moliyaviy va boshqaruv hisobi integratsiyasi korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni baholashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu tizimni takomillashtirish orqali moliyaviy axborotlarning ishonchliligi oshadi, xarajatlar ustidan nazorat kuchayadi, resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi va korxona faoliyatining barqaror rivojlanishi uchun zarur boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Drury Colin. "Management and Cost Accounting". 10th Edition. Cengage Learning, 2018.
2. Datar Srikant M., Rajan Madhav V. "Horngren's Cost Accounting: A Managerial Emphasis". 16th Edition. Pearson, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-404-son, 2016-yil 13-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asosni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i. 2024-yil 14-iyun, 131-son.
5. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (1-sonli BHMS) "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati". 2024-yil 6-avgust.
6. International Accounting Standards Board. "IAS 1 – Presentation of Financial Statements". International Financial Reporting Standards (IFRS).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.